
FAYZLI OQSHOMLAR SURUR

Toshloq tumanidagi Xonariq MFYda yangi faoliyatini boshlagan "Ziyo maskani", "WI-FI" zona hamda yoshlar dam olish maskanida mustaqillik oqshomlari bo'lib o'tdi. "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda mahalla ahli ishtirok etdi.

Tumandagi Nayman MFY hududidagi Madaniyat uyida aholi kayfiyatini ko'tarish va yaqinlashib kelayotgan mustaqilligimizni 31 yilligini keng nishonlash maqsadida madaniyat bo'limi bilan hamkorlikda konsert dasturi tashkillandi.

Mahallalarda o'tkazilayotgan bayram tadbirlarida tuman Madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan ohangrabo kuy-qo'shiqlar ijro etilib, turli sport o'yinlarini o'tkazilishi aholiga ayniqsa, yoshlarga haqiqiy bayram kayfiyatini ulashmoqda.

2022-08-17 19:54:47